



MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHCHI SCHYOTLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Raxmatullayev Mirjalol

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-7918-1627

raxmatullayevmirjalol0787@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida amaldagi ishchi schyotlar tizimining yetishmovchiliklari aniqlangan va xalqaro tajriba hamda O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik bazasi negizida yangi tarmoq xususiyatlariga moslashtirilgan ishchi schyotlar tizimini joriy etish zarurati asoslangan. Tadqiqot uchta amaldagi korxonada ma'lumotlari asosida olib borilgan bo'lib, schyotlar tizimini detallashtirish moliyaviy axborotning shaffoqligini va boshqaruv qarorlarining sifatini sezilarli darajada oshirishi isbotlangan.

Kalit so'zlar: ishchi schyotlar, sintetik hisob, analitik hisob, meva-sabzavotni qayta ishlash, hisob siyosati, segment hisobi, tannarx hisobi, moliyaviy hisobot.

НЕОБХОДИМОСТЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УЧЕТА ОБОРОТНЫХ РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПЕРЕРАБОТКЕ ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ

Рахматуллаев Мирджалол

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье выявлены недостатки действующей системы рабочих счетов на предприятиях по переработке фруктов и овощей, обоснована необходимость внедрения новой системы рабочих счетов, адаптированной к отраслевым особенностям, на основе международного опыта и нормативно-правовой базы Республики Узбекистан. Исследование проведено на материалах трёх действующих предприятий, доказано, что детализация системы счетов существенно повышает прозрачность финансовой информации и качество управленческих решений.

Ключевые слова: рабочие счета, синтетический учёт, аналитический учёт, переработка фруктов и овощей, учётная политика, сегментный учёт, учёт себестоимости, финансовая отчётность.

THE NEED AND MAIN DIRECTIONS FOR IMPROVING THE WORKING ACCOUNTS SYSTEM IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING ENTERPRISES

Rakhmatullayev Mirjalol

Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article identifies the shortcomings of the existing system of working accounts at fruit and vegetable processing enterprises, and substantiates the need to introduce a new system of working accounts adapted to industry characteristics on the basis of international experience and the regulatory framework of the Republic of Uzbekistan. The research is conducted on the data of three operating enterprises, and it is proven that the detailing of the accounts system significantly increases the transparency of financial information and the quality of management decisions.*

Keywords: *working accounts, synthetic accounting, analytical accounting, fruit and vegetable processing, accounting policy, segment accounting, cost accounting, financial reporting.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida meva-sabzavotchilik va uni qayta ishlash sanoati so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-martdagi PQ-2505-son qarori va 2016-yil 12-apreldagi PQ-2520-son qarorlari bilan tarmoqni chuqur qayta ishlashga yo'naltirish, eksport salohiyatini kengaytirish va xomashyo bazasini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilangan. Mazkur islohotlar natijasida qayta ishlash korxonalarining ishlab chiqarish hajmi va mahsulot turlari sezilarli ravishda kengaydi, biroq buxgalteriya hisobi tizimi bu o'zgarishlardan ortda qolib ketdi (Qaror, 2016).

Amaldagi buxgalteriya hisobi tizimida 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish”, 2810 – “Tayyor mahsulot”, 9010 – “Asosiy faoliyatdan daromad” va 9410 – “Sotish xarajatlari” sintetik schyotlari tarmoq xususiyatlarini yetarlicha aks ettirmaydi. Meva-sabzavotni qayta ishlash jarayonlari texnologik bosqichlarning ko'p bosqichliligi, mavsumiyliigi, xomashyoning tez buziluvchanligi va sifat parametrlariga bog'lanishi kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu xususiyatlar umumlashtirilgan schyotlar darajasida hisobga olinmaydi. Natijada moliyaviy axborot boshqaruv qarorlari uchun yetarli darajada batafsil va ishonchli emas.

Adabiyotlar sharhi.

Arens va Lobbek (2019) o'z tadqiqotlarida moliyaviy axborotning ishonchliligini ta'minlashda analitik hisobning tarmoq xususiyatlariga moslashtirilishi muhim ekanligini ta'kidlaydilar.

Nidlz va Ying (2018) ishlarida boshqaruv hisobining samaradorligi schyotlar tizimining detallashtirilishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekanligi isbotlangan.

Rossiyalik olimlar Vlasova (2021) va Lapshin (2020) oziq-ovqat sanoati korxonalarida xarajatlarni texnologik bosqichlar kesimida hisobga olish bo'yicha asosli takliflarni keltirganlar. Ularning fikricha, xomashyoni qayta ishlash korxonalarida har bir bosqichning xarajat strukturasi tubdan farq qiladi va shuning uchun alohida analitik hisob yuritish zarur.

Kolesnikova (2022) o'z tadqiqotlarida sifat parametrlariga bog'langan narxlash mexanizmlarini hisob siyosatiga integratsiyalash zaruratini ko'rsatib bergan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda dialektik bilish metodi va sistemali yondashuv asosiy uslubiy poydevor sifatida qo'llanilgan. Empirik bazani uchta meva-sabzavot qayta ishlash korxonasining 2021–2024 yillardagi moliyaviy hisobotlari tashkil etadi: “East agro international” MChJ, “Asian jam” MChJ va “Green world-group” MChJ. Ma'lumotlar manbasi sifatida korxonalarining yillik

moliyaviy hisobotlari, sintetik va analitik hisob registrlari hamda hisob siyosati hujjatlari tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida amaldagi ishchi schyotlar tizimining holatini tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy yetishmovchiliklar aniqlandi: birinchidan, 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti barcha texnologik bosqichlarni umumlashtirilgan tarzda hisobga oladi va xomashyo qabul qilish, qaynatish, aseptik to‘ldirish hamda sovuqlikda saqlash bosqichlari kesimida xarajatlarni ajratib ko‘rsatish imkoniyati mavjud emas. Ikkinchidan, 2810 – “Tayyor mahsulot” schyoti pomidor pastasi, sharbat va konsentratlar, quritilgan va muzlatilgan mahsulotlar kabi mahsulot turlarini umumlashtiradi va tannarxni mahsulot segmentlari kesimida hisoblash imkoniyatini cheklaydi.

Uchinchidan, 9010 – “Asosiy faoliyatdan daromad” schyoti ichki bozor va eksport sotuvlarini ajratib ko‘rsatmaydi, bu esa eksport rentabelligini va ichki bozor segmentlarining moliyaviy samaradorligini alohida baholash imkoniyatini bermaydi. To‘rtinchidan, 9410 – “Sotish xarajatlari” schyoti sifat-sertifikatsiya xarajatlarini, texnik xizmat xarajatlarini va logistika xarajatlarini umumlashtiradi, bu esa har bir kategoriyaning ulushini va dinamikasini boshqarish imkonini cheklaydi.

Tadqiqot davomida tanlangan korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari taxlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tanlangan korxonalarining 2024-yildagi moliyaviy ko‘rsatkichlari (mlrd so‘m)

Ko‘rsatkich	East agro	Asian jam	Green world	O‘rtacha
Sof tushum	4 850	5 920	8 810	6 527
Tannarx	3 830	4 348	4 830	4 336
Yalpi foyda	1 020	1 572	3 980	2 191
Yalpi marja, %	21,0	26,6	45,2	31,0
Operatsion marja, %	4,2	-1,2	-9,9	-2,3

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tanlangan korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari sezilarli farq qiladi. Operatsion marja ko‘rsatkichi “Asian jam” va “Green world-group” korxonalarida salbiy qiymatga ega bo‘lib, bu davr xarajatlarining yetarlicha boshqarilmayotganligini aks ettiradi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ushbu vaziyat aynan amaldagi schyotlar tizimida xarajatlar va daromadlarning yetarlicha detallashtirilmaganligi natijasi hisoblanadi: korxonalar tannarxni texnologik bosqichlar va mahsulot segmentlari kesimida aniq baholay olmaydi va shuning sababli boshqaruv qarorlari yetarlicha asosli emas. Yuqorida bayon qilingan tahlil natijalari asosida quyidagi ishchi schyotlar tizimini joriy etish taklif qilinadi.

Taklif etilayotgan schyotlar tizimi ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarini quyidagi tarzda detallashtiradi:

birinchidan, 2011–2014 ishchi schyotlari xarajatlarni texnologik bosqichlar kesimida aniq ajratish va har bir bosqichning xarajat strukturasi chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, 2811–2813 ishchi schyotlari mahsulot segmentlari bo‘yicha tannarxni va rentabellikni hisoblash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan ishchi schyotlar tizimi

Sintetik schyot	Ishchi schyot	Hisob mazmuni
2010	2011 – Xomashyo qabul qilish	Xomashyoni qabul qilish, sortlash va saqlash bosqichidagi xarajatlar
	2012 – Qaynatish va konsentratsiya	Issiqlik bilan ishlov berish va konsentratsiyalash bosqichidagi xarajatlar
	2013 – Aseptik to'ldirish va qadoqlash	Aseptik to'ldirish va qadoqlash bosqichidagi xarajatlar
	2014 – Sovuqlik va saqlash	Tayyor mahsulotni sovuqlik zanjirida saqlash xarajatlari
2810	2811 – Pomidor pastasi	Pomidor pastasi va konsentrat mahsulotlar
	2812 – Sharbat va pyure	Sharbat va pyure mahsulotlari
	2813 – Quritilgan va muzlatilgan	Quritilgan va muzlatilgan mahsulotlar
9010	9011 – Ichki bozor sotuvlari	Mamlakat ichidagi savdo va ulgurji sotuvlardan tushgan daromadlar
	9012 – Eksport sotuvlari	Xorijiy bozorlarga eksport qilingan mahsulotlardan daromadlar
9410	9411 – Laboratoriya va sertifikatlash	Sifat nazorati, laboratoriya va sertifikatlash xarajatlari
	9412 – Texnik xizmat	Mahsulotni sotuvgacha bo'lgan texnik xizmat xarajatlari
	9413 – Logistika va transport	Mahsulotlarni transportirovka qilish xarajatlari

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Uchinchidan, 9011 va 9012 ishchi schyotlari ichki bozor va eksport sotuvlari moliyaviy samaradorligini alohida baholash imkonini beradi. To'rtinchidan, 9411–9413 ishchi schyotlari sotish xarajatlarini funksional kesimda boshqarishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida amaldagi ishchi schyotlar tizimi tarmoqning texnologik xususiyatlarini, mavsumiylikini va mahsulot segmentlarining ko'pligini yetarli darajada aks ettirmaydi. Bu hol moliyaviy axborotning batafsilligini va boshqaruv qarorlari uchun ishonchligini cheklaydi.

Ishchi schyotlar tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif etilgan model 2011–2014 (texnologik bosqichlar), 2811–2813 (mahsulot turlari), 9011–9012 (sotuv kanallari) va 9411–9413 (sotish xarajatlari kategoriyalari) ishchi schyotlarini o'z ichiga oladi va xarajatlarni hamda daromadlarni to'rt o'lchamda batafsillashtirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan schyotlar tizimining empirik aprobatsiyasi "Asian jam" MChJ amaliyotida ushbu yondashuv operatsion marjani +1,8 % ga oshirish, eksport rentabelligini aniq baholash hamda xarajatlarni boshqarishning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga olib kelishini ko'rsatdi.

Adabiyotlar / Literature / Reference:

Qaror (2016) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-martdagi PQ-2505-son qarori "Mevalar-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rivojlantirish to'g'risida".

Аренс, Э.А. ва Лоббек, Дж.К. (2019) Аудит. Москва: Финансы и статистика, 712 б.

Власова, Н.С. (2021) Отраслевой учёт в пищевой промышленности. –Москва: Кнорус, 368 с.

Колесникова, Т.В. (2022) Сифат параметрларига боғланган нархлаш механизмлари. Бухгалтерия ҳисоби, (5), 23-34.

Лапшин, П.В. (2020) Переработка сельскохозяйственной продукции: учёт затрат. Москва: Инфра-М, 285 с.

Нидлз, Б. ва Йинг, С.Х. (2018) Бошқарув ҳисоби: назария ва амалиёт. Таржима. Тошкент: Иқтисодиёт, 524 б.